

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DOLZARBLIGI

Nomozov Umid

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0004-0388-7476

umidnomozov4@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, xususan, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, bandlik darajasini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi faoliyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda "Yangi O'zbekiston – 2030" dasturi va 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi kabi strategik hujjatlarning bank tizimini rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari (aktivlar, kreditlar, kapital va depozitlar) bo'yicha chuqur tahlil o'tkazilgan. Xususan, davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o'rtasidagi farqlar, ularning bozordagi ulushlari va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan. Tahlil natijasida davlat banklarining bozorda ustun mavqega ega ekanligini, biroq boshqa banklarning depozitlarni jalb qilishda deyarli teng raqobatlasha olishi aniqlandi. Shuningdek, tijorat banklarining kreditlash faoliyati va muammoli kreditlar (NPL) hajmi bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilib, bu boradagi risklar va samaradorlik baholangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank kreditlari, bank aktivlari, moliyalashtirish, investitsion loyihalar, muammoli kreditlar (NPL), depozitlar, kapital.

АКТУАЛЬНОСТЬ КРЕДИТОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

Номозов Умид

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. Данная статья посвящена анализу роли коммерческих банков Республики Узбекистан в развитии национальной экономики, в частности, их деятельности по финансированию инвестиционных проектов, повышению уровня занятости и внедрению инновационных технологий. В нем освещены приоритетные направления в развитии банковской системы таких стратегических документов, как программа "Новый Узбекистан - 2030" и Стратегия развития на 2022-2026 годы. Также был проведен глубокий анализ основных показателей банковской системы Узбекистана (активы, кредиты, капитал и депозиты). В частности, на основе статистических данных показаны различия между банками с государственной долей и другими банками, их доля на рынке и влияние на экономическую стабильность. Анализ показал, что государственные банки занимают доминирующее положение на рынке, но другие банки могут конкурировать практически на равных в привлечении депозитов. Также представлена информация о кредитной деятельности коммерческих банков и объеме проблемных кредитов (NPL), оценены риски и эффективность в этом отношении.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские кредиты, банковские активы, финансирование, инвестиционные проекты, проблемные кредиты (NPL), депозиты, капитал.

THE SIGNIFICANCE OF COMMERCIAL BANK LOANS IN THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT

Nomozov Umid

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article is devoted to the analysis of the role of commercial banks of the Republic of Uzbekistan in the development of the national economy, in particular, in financing investment projects, increasing the level of employment, and implementing innovative technologies. It highlights the priority areas for the development of the banking system of such strategic documents as the "New Uzbekistan - 2030" program and the Development Strategy for 2022-2026. Also, an in-depth analysis of the main indicators of the banking system of Uzbekistan (assets, loans, capital, and deposits) was conducted. In particular, the differences between state-owned banks and other banks, their market share, and their impact on economic stability are shown based on statistical data. The analysis revealed that state-owned banks have a dominant position in the market, but other banks can compete almost equally in attracting deposits. Information on the lending activities of commercial banks and the volume of non-performing loans (NPL) was also presented, and the risks and effectiveness in this area were assessed.*

Keywords: *commercial banks, bank loans, bank assets, financing, investment projects, non-performing loans (NPL), deposits, capital.*

Kirish.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda bandlik darajasini yaxshilash kabi muhim vazifalarni bajarishda bank kreditlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Xalqaro amaliyot bank kreditlarini iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil deb qaraydi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan "Yangi O'zbekiston – 2030" dasturi va 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi kabi strategik hujjatlar, bank kreditlari vositasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, mikromoliyalashtirishni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishni davlat siyosatining ustuvor vazifasi qilib belgiladi. Tijorat banklari kredit resurslarini iqtisodiyotning ustuvor sohaslariga samarali yo'naltirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, shuningdek Prezident farmonlari kabi huquqiy hujjatlar tijorat banklariga keng imkoniyatlar yaratib, ularni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy vositalaridan biriga aylantirdi. Subsidiya, soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari kabi rag'batlantirish tizimlari banklar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Aholi sonining ortishi va mehnat resurslarining ko'payishi tufayli yangi ish o'rinlarini yaratish zarurati tobora kuchaymoqda. Aynan shu kontekstda banklar tomonidan moliyalashtiriladigan iqtisodiy loyihalar, xususan, xizmat ko'rsatish sohasiga qaratilgan kreditlar orqali bandlik darajasini oshirishga jiddiy hissa qo'shish mumkin. Xalqaro tajriba banklarni bandlikni rag'batlantirishning samarali vositasi sifatida keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi, shuning uchun bu amaliyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Jaiswal va Tripathi (2018) o'z tadqiqotlarida tijorat banklarini iqtisodiy barqarorlikning fundamental asosi sifatida belgilab, ularning aholi jamg'armalarini mobilizatsiya qilish va ularni samarali investitsion loyihalarga yo'naltirish orqali kapital akkumulyatsiyasidagi rolini ta'kidlaydilar. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki korxonalarning

kengayishi va yangi ish o'rinlarining shakllanishiga ham imkon yaratadi. Banklar tomonidan taqdim etilgan kreditlar korxonalarga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Fontana va Passarella (2015) esa tijorat banklarini pul-kredit siyosatining transmissiya mexanizmi sifatida tahlil qiladi. Ular banklarning pul massasini yaratishdagi rolini alohida ta'kidlab, markaziy bank tomonidan belgilanadigan foiz stavkalari va likvidlikni boshqarish choralari tijorat banklari orqali real iqtisodiyotga qanday tarqalishini ko'rsatadilar. Bu mexanizm narxlar barqarorligi, to'liq bandlik va barqaror iqtisodiy o'sish kabi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda muhim vazifani bajaradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachilar, balki davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshiruvchi strategik institutlar sifatida ham ishlaydi.

Youssef (2019) tijorat banklarining iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy inklyuziyadagi ahamiyatini ta'kidlab, ularning jamg'armalarni safarbar etish va kreditlash faoliyati orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash rolini alohida yoritadi. Tadqiqotchining fikricha, banklar aholining keng qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni demokratizatsiya qiladi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Masalan, uy-joy, ta'lim va kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish kabi imkoniyatlar yaratish orqali banklar umumiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodchi olim J.Sinki (2017) bank daromadini baholashda sof foizli marjani (sof foiz daromadining umumiy aktivlarga nisbati) muhim ko'rsatkich sifatida ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, bu ko'rsatkich kreditlardan olingan foiz daromatlari va depozitlarga to'lanadigan xarajatlar o'rtasidagi farqni aks ettirib, bankning asosiy faoliyat samaradorligini ko'rsatadi. Raqobat yuqori bo'lgan bozorlarda sof foizli marjaning torayishi kuzatilishi mumkin, chunki banklar mijozlarni jalb qilish uchun kredit stavkalarini pasaytirishga va depozit stavkalarini oshirishga majbur bo'ladi. Bu tendensiya ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'ladi, bu erda kredit operatsiyalari bank daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

M.Matovnikovning (2013) fikriga ko'ra, tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil banklarda uzoq muddatli resurslarning yetishmasligidir. Ushbu muammoni hal qilishning oddiy va real usuli sifatida Markaziy bankdan likvidlik garovi bilan kredit olish mexanizmini taklif etadi.

A.Omonovning (2008) fikriga ko'ra, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritish yo'li bilan ularning kapital bazasining barqarorligi va uzoq muddatli resurs bazasi hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va taraqqiyotni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning roli nafaqat moliyaviy intermediyerlik funktsiyasi bilan chegaralanmaydi, balki iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlovchi va jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida bog'lovchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Tijorat banklari iqtisodiy faollikni kuchaytirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish va davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etadi. Ularning asosiy vazifasi mablag'larni jalb qilish va ularni istiqbolli investitsion loyihalarga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishdan iborat bo'lib, bu ularni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveriga aylantiradi.

O'zbekiston bank tizimida bugungi kunda jami 36 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning tarkibi quyidagicha:

- 10 ta davlat ishtirokidagi banklar,
- 6 ta chet el kapitali ishtirokidagi banklar,
- 2 ta xorijiy banklar,
- 18 ta xususiy banklar.

Tijorat banklari aktivlari tijorat banklari faoliyatini rivojlantiradigan mexanizm hisoblanadi.

2025-yil 1-mart holatiga ko'ra tijorat banklarining faoliyat ko'rsatkichlari (aktivlar, kreditlar, kapital va depozitlar) asosida tahlil o'tkaziladi. Ma'lumotlar davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar va boshqa banklar o'rtasidagi farqlarni, bozordagi ulushlarni, davlat siyosatining ta'sirini va aktiv operatsiyalarni boshqarishdagi muammolarni aniqlashga yordam beradi.



1-rasm. Tijorat banklari aktivlari tarkibi (MB, 2015)

Tahlil O'zbekiston bank tizimining hozirgi holatini, qonunchilik asoslarini va bozordagi raqobat muhitini yoritishga qaratilgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklarining umumiy aktivlari 769 330 mlrd so'mni, kreditlari 533 121 mlrd so'mni, kapitali 114 792 mlrd so'mni va depozitlari 308 692 mlrd so'mni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar bank tizimining iqtisodiyotdagi muhim rolini va moliyaviy resurslarni boshqarishdagi faoliyatini ko'rsatadi (2025).

Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar umumiy aktivlarning 65% (503 187 mlrd so'm), kreditlarning 69% (366 731 mlrd so'm), kapitalning 61% (70 175 mlrd so'm) va depozitlarning 50% (154 511 mlrd so'm) ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar davlat banklarining bozordagi hukmron mavqeini va iqtisodiyotdagi asosiy moliyaviy vositachi sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Boshqa banklar esa umumiy aktivlarning 35% (266 143 mlrd so'm), kreditlarning 31% (166 391 mlrd so'm), kapitalning 39% (44 617 mlrd so'm) va depozitlarning 50% (154 181 mlrd so'm) ni egallaydi. Bu ularning bozorda faol ishtirok etayotganini, lekin davlat banklariga nisbatan kichikroq ulushga ega ekanligini ko'rsatadi.

Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar orasida eng katta ulushga ega bo'lganlar:

– O'zmilliybank aktivlari 135 090 mlrd so'm (umumiy aktivlarning 18%), kreditlari 108 014 mlrd so'm (kreditlarning 20%), kapitali 18 860 mlrd so'm (kapitalning 16%) va depozitlari 36 839 mlrd so'm (depozitlarning 12%) ni tashkil etib, davlat banklari orasida yetakchi o'rinni egallaydi.

– O'zsanoatqurilishbank aktivlari 87 597 mlrd so'm (11%), kreditlari 65 498 mlrd so'm (12%), kapitali 10 025 mlrd so'm (9%) va depozitlari 20 745 mlrd so'm (7%) bo'lib, sanoat va qurilish sohasini moliyalashtirishga ixtisoslashgan.

– Agrobank aktivlari 79 404 mlrd so'm (10%), kreditlari 59 436 mlrd so'm (11%), kapitali 12 427 mlrd so'm (11%) va depozitlari 19 469 mlrd so'm (6%) ni tashkil etib, qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

1-jadval

**Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida
2025-yil 1-yanvar holatiga (banklar kesimida) ma'lumot**

1	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
	Jami	769 330	100%	533 121	100%	114 792	100%	308 692	100%
	Davlat ulushi mavjud banklar	503 187	65%	366 731	69%	70 175	61%	154 511	50%
1	O'zmilliybank	135 090	18%	108 014	20%	18 860	16%	36 839	12%
2	O'zsanoatqurilishbank	87 597	11%	65 498	12%	10 025	9%	20 745	7%
3	Agrobank	79 404	10%	59 436	11%	12 427	11%	19 469	6%
4	Asaka bank	58 093	8%	38 717	7%	8 016	7%	15 852	5%
5	Xalq banki	46 491	6%	29 620	6%	8 000	7%	23 709	8%
6	Biznesni rivojlantirish banki	32 133	4%	22 527	4%	4 295	4%	10 765	3%
7	Mikrokreditbank	23 543	3%	17 416	3%	3 551	3%	7 832	3%
8	Aloqa bank	23 251	3%	12 944	2%	3 082	3%	13 815	4%
9	Turon bank	17 585	2%	12 558	2%	1 919	2%	5 486	2%
	Boshqa banklar	266 143	35%	166 391	31%	44 617	39%	154 181	50%
10	Ipoteka-bank	52 069	7%	35 094	7%	7 337	6%	25 692	8%
11	Kapital bank	47 365	6%	31 584	6%	5 225	5%	36 664	12%
12	Hamkorbank	28 708	4%	19 178	4%	5 161	4%	11 634	4%
13	Ipak yo'li bank	23 150	3%	14 228	3%	3 588	3%	11 810	4%

Manba: <http://www.cbu.uz> (Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari)

Davlat banklari orasida eng kichik ulushga ega bo'lganlar, masalan, Turonbank (aktivlari 17 585 mlrd so'm, 2%) va Aloqa bank (aktivlari 23 251 mlrd so'm, 3%) bo'lib, ularning bozordagi ta'siri nisbatan past va faoliyati ko'proq ixtisoslashgan sohalarga yo'naltirilgan (2025).

Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar va boshqa banklar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilganimizda, quyidagi fundamental farqlar ajralib turadi. Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar bozorda mutlaq hukmron mavqega ega bo'lib, ularning aktivlari umumiy ko'rsatkichning 65% ini, kredit portfeli esa 69% ini tashkil etadi. Bu holat davlat siyosatining bank tizimiga chuqur ta'sirini, shuningdek, davlat banklarining milliy iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi tayanch rolini aniq ko'rsatadi. Aksincha, boshqa banklar aktiv va kreditlar bo'yicha bozorda atigi 35% ulushga ega bo'lib, ularning faoliyati asosan erkin bozor mexanizmlari va qattiq raqobat sharoitida amalga oshiriladi.

2-jadval

**Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida
2025-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot**

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	Jami	533 121	177 532	355 589	308 692	122 421	186 272
	Davlat ulushi mavjud banklar	366 731	92 698	274 033	154 511	53 290	101 221
1	O'zmilliybank	108 014	17 978	90 036	36 839	12 650	24 190
2	O'zsanoatqurilishbank	65 498	9 864	55 635	20 745	7 093	13 652
3	Agrobank	59 436	9 228	50 208	19 469	9 393	10 075
	Boshqa banklar	166 391	84 835	81 556	154 181	69 130	85 051
10	Ipoteka-bank	35 094	23 758	11 336	25 692	5 930	19 761
11	Kapital bank	31 584	18 021	13 563	36 664	22 094	14 570
12	Hamkorbank	19 178	7 550	11 628	11 634	6 521	5 112

Manba: <http://www.cbu.uz> (Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari)

Depozitlar bo'yicha esa vaziyat boshqacha bo'lib, davlat banklari va boshqa banklar o'rtasida ulushlar teng (45% ga 55%) taqsimlangan. Bu boshqa banklarning aholi jamg'armalarini jalb qilish samaradorligi jihatidan davlat banklari bilan deyarli teng darajada raqobatlasha olishini ko'rsatadi. Bunga Kapitalbank (36 664 mlrd so'm) va Ipoteka-bank (25 692 mlrd so'm) kabi tashkilotlarning depozitlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari yaqqol misol bo'la oladi. Kapital bo'yicha davlat banklari (61%) ulushi ustunlik qilishiga qaramasdan, boshqa banklarning 39% ga yaqin ulushi ularning nisbatan mustahkam kapital bazasiga ega ekanligini va uni yanada mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini anglatadi. Biroq, bu ko'rsatkich bir vaqtning o'zida ularning hajm jihatidan davlat banklariga nisbatan hali ham cheklovlariga guvohlik beradi.

3-jadval

**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida
2025-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot**

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
	Jami	533 121	21 185	4,0%
	Davlat ulushi mavjud banklar	366 731	14 344	3,9%
1	O'zmilliybank	108 014	3 275	3,0%
2	O'zsanoatqurilishbank	65 498	1 844	2,8%
3	Agrobank	59 436	2 903	4,9%
	Boshqa banklar	166 391	6 841	4,1%
10	Ipoteka-bank	35 094	3 577	10,2%
11	Kapital bank	31 584	1 437	4,5%
12	Hamkorbank	19 178	319	1,7%

Manba: <http://www.cbu.uz> (Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari)

Tahlilga ko'ra, 2025-yil boshida muammoli kreditlar hajmi 21 185 mlrd. so'm bo'lgan. Davlat ulushi mavjud banklarga 14 344 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, boshqa banklarda esa, 6 841 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlil va natijalardan kelib chiqib, mazkur sharoitda banklarning kelajakdagi moliyaviy barqarorligi va aktivlar rentabelligini ta'minlash uchun quyidagi strategik choralarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

kredit risklarini boshqarish tizimini sifat jihatidan yaxshilash va kredit portfelini yanada yaxshiroq monitoring qilish;

investitsion faoliyatni diversifikatsiya qilish orqali aktivlar tarkibidagi risklarni kamaytirish;

operatsion xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Ushbu yo'nalishlarda qilinadigan izchil islohotlar bankning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, uning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar//Lumepamypa/Reference:

Fontana, G. & Passarella, M. (2015). *Commercial Banks as the Transmission Mechanism of Monetary Policy: The Role in Money Supply Creation*. *Journal of Monetary Economics*, Vol. 72, 101-114 b.

Jaiswal, M. & Tripathi, V. K. (2018). *Role of Commercial Banks in Economic Stability: A Comprehensive Study*. *International Journal of Banking and Finance*, Vol. 6, No. 2, 45-59 b.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qarori. *Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom*.

Omonov A.A. *Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari*. I.f.d. ilm. dar. ol. uchun diss. – Toshkent, 2008.

The Role of Commercial Banks in Economic Development and Financial Inclusion: International Journal of Economics and Finance. – 2019. – Vol. 11, No. 3. – P. 85-98.

Матовников М.Ю. *Банковская система России и долгосрочные ресурсы//Деньги и кредит*. – Москва, 2013. - №5. - С. 19.

Синки Дж. *Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг*. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С.338.